O`ZBEK AMALIY SAN`ATINING BADIIY GILAM VA GOBELEN TARIXIY BOSQICHLARI

Andijon davlat universiteti
Tasviriy va amaliy san`at kafedrasi
o`qituvchisi ***Turdaliyeva Dildora Alisher qizi***
Rangtasvir (dastgohli) yo`nalishi 1-bosqich talabasi
Abduvosiyeva Shodiyona Ibroxim qizi

Annotatsiya.*Ushbu maqolada amaliy san'atning "Badiiy gilam va gobelen" turi haqida ma'lumotlar beriladi. Gobelen - o'zi nima? Gobelen yaratilishi tarixi. Gobelen san'atiga kimlar asos solgan? Gobelen bizning O'zbekistonga qachon kirib kelgan? Ushbu savollarga maqola orqali batafsil javob olish mumkin.*

Kalit so‘zlar. *Gobelen,O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, shpaler, apostol, karton, chiviqli yuza, patsiz, patli, gilamsimon, sun’iy tola,funktsional to'qimachilik, Sharq bezaklari, tabiat manzaralari, mahalliy tasvir, Andijondagi Bobur nomidagi muzey, ranglar uyg`unligi, faktura, ritm.*

Kirish. Gobelen (rus.) — qo‘lda tasvir hosil qilib to‘qilgan gilam (shpaler), badiiy buyum. Parij manufakturasi (1662)ning mahsulotlari dastlab shunday atalgan (15-asrning mashhur bo‘yoqchilari Gobelenlar nomidan). Gobelen rangli jun va ipak (ba’zan tilla va kumush) iplar bilan rassomlar (manufaktura boshqaruvchisi rassom Sh. Lebren, 18-asrda F. Bushe, J. B. Udri va b.) kartondan buyumning tabiiy kattaligida bajargan tasvirlari asosida to‘qilgan. Masalan, Rafael Vatikan uchun havoriy (apostol)lar hayotiga oid shpalerlar turkumi kartonlarini chizib bergan, to‘quvchi ustalar shu kartondan foydalanib gobelen to‘qiganlar. Alohida alohida to‘qilgan bo‘laklar bir-biriga tikilib yaxlit tasvir hosil qilingan. Gobelenning uziga xos xususiyati o‘ngining chiviqli yuzasi va orqa tomonining notekisligidir.

Gobelenlar ko`pincha syujetli, obrazli tasvirlarga ega bo`ladi. Bu orqali o`quvchilar voqeani anglash, uni taxlil qilish va o`z tasavvurida yangi obrazlarni shakllantirishga intiladilar. San`at asardagi ramzlar va mavzular ularda obrazli fikrlash ko`nikmalarini shakllantiradi. Gobelen san`ati shuningdek, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni ham rivojlantiradi. Gobelen asarlarida milliylik, tarixiylik, xalqona naqshlar va an`anaviy timsollar o`z ifodasini topadi. O`quvchilar ushbu asarlar orqali o`z xalqining madaniy merosini, urf-odatlarini va estetik qarashlarini o`rganadilar. Bu esa ularda milliy g`urur va qadriyatlarimizga bo`lgan hurmatni shakllantiradi. To`qimachilik asosida yaratilgan bezakli san`at turi bo`lib, devorga ilib qo`yiladigan tasvirli kompozitsiya shaklida namoyon bo`ladigan san`at turi ilk bor Fransiyada paydo bo`lgan bo`lsa-da, uning ildizlari qadimgi Sharq to`qimachilik madaniyatiga borib taqaladi. Gobelen

asarlarining asosiy xususiyati shundaki, ular realistik yoki ramziy obrazlarni iplar orqali aks ettirishga qaratilgan bo`ladi. Gobelen san`atida ranglar uyg`unligi, material tanlovi, faktura va ritm muhim o`rin tutadi.

17— 18-asrlar gobelenlari yuksak badiiyligi (tarixiy, afsonaviy, diniy va adabiy mazmuni) bilan mashhur bo‘lgan, shu tufayli boshqa manufakturalarda taqlidan yaratilgan shpalerlar ham gobelen deb atala boshlangan. 19-asrdan patsiz, patli, gilamsimon to‘qima matolar, hatto tasvir ishlangan kigizlar ham gobelen deb atala boshlandi. Hozir qo‘lda va mashinalarda tabiiy va sun’iy tolalardan to‘qilgan patsiz, patli mebel matolari, turli bezak matolar ham gobelen deb ataladi.



XIXasr ohiri XX asr boshlarida to'qimachilik to'qish ham rivojlanib, usta to'quvchilar mintaqaning turli madaniy ta'sirini aks ettiruvchi murakkab matolar, gilamlar va gobelenlar yaratdilar. O'zbek to'qimachiligi o'zining jasur ranglari, geometrik naqshlari va nozik hunarmandchiligi bilan mashhur bo'lib, asrlar davomida butun dunyo tomoshabinlarini o'ziga jalb qilib kelgan.

Xuddi shu davrda o'zbek to'qimachilik to'quvi rassomlar yangi materiallar, texnikalar va dizayn motivlarini o'zlashtirgani uchun yangilik davrini boshdan kechirdi. Xudaybergen Divanov va Anvar Muxtorov to'qimachilik to'qish san'atida inqilob qildi, tabiiy bo'yoqlar, dastgoh texnologiyasi va naqsh dizayni bilan tajriba o'tkazib, ham chiroyli, ham funktsional to'qimachilik mahsulotlarini yaratdi. Ularning asarlari uylar, kiyim-kechak va marosim buyumlarini bezatib, o'zbek o'ziga xosligi va madaniyatining yorqin ifodasi bo'lib xizmat qilmoqda.





O‘zbekistonda gobelen 1960-yillardan to‘qila boshlandi. 1970—80-yillarda keng tarqaldi. M. Churlu, Ya. va A. Ishoqovlar, L.Taldikina kabi ustalar samarali mehnat qildilar. Gobelenning asosiy markazlari Toshkent va Farg‘ona sh.laridir. Farg‘ona (V. Useinova, L.Semizarova, S. Shixova va b.) va Toshkent (M. Tyurina, R. Ibrohimova va b.) ustalari bu sohada barakali ijod qilmoqda. O‘zbekiston gobelenlarida Sharq bezaklari, tabiat manzaralari, mahalliy tasvir, rang-baranglik ustun turadi.

Abdullajon Jo‘raboyev O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib gobilen – gilamlarga rasm solish sohasida faoliyat olib bordi va rivojlantirdi. Ulug‘ yoshiga qaramay Abdullajon Jo‘raboyev ijodiy izlanishlar qizg‘inligiga to‘la, u o‘zining avvalgi badiiy usullarini rivojlantirib, yangi texnologiyalar bilan ishlay boshladi.

Iste’dodli rassom chizgan asarlari Toshkent xalq amaliy san’at muzeyida, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida, Andijondagi Bobur nomidagi muzeyda, bir qancha chet mamlakatlarida, jumladan, Yaponiya tasviriy san’at galereya muzeyida, Bolgariya va AQShning bir qator muzeylarida saqlanadi.

Abdullajon Jo‘raboyev 1980 yilda Moskva shahrida o‘tkazilgan VDNX (Xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi)da tashkil etilgan rassomlar ko‘rgazmasida bronza medalini qo‘lga kiritgan. 1993 yilda Xalqaro Bobur mukofotini qo‘lga kiritgan. Uning ayniqsa, gobilen san’atiga oid asarlari juda rang-barang, o‘ziga xos. Bu usul mamlakatimizda kamyob usullardan hisoblanib, o‘zining sermashaqqatliligi va o‘z navbatida san’at shaydolariga o‘ziga xos zavq berishi bilan ajralib turadi. Rassom ustaxonasidagi shu kabi san’at asarlarini ko‘rarkansan, beixtiyor ularni inson qo‘li bilan tayyorlanganiga ishonging kelmaydi. Gilamlarda ranglarning turfa xil jilolanishi, undagi syujetning ma’nodorligi, falsafiy fikrlarni ifodalashi bilan o‘ziga tortadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, gobelen san'atini O'zbekistonda yana ham rivojlantirish. Gobelen O'zbekistonga 1960-yillarda kirib kelgan. Gobelenning asosiy markazlari Toshkent va Farg'ona shaharlari hisoblanadi. Abdullajon Jo'raboyev O'zbekistonda gobelenni birinchilardan bo'lib boshlagan va uni rivojlantirgan. Ushbu rassomning bir qancha asarlari turli xil muzeylarda saqlanadi. Gobelen bu matoga iplar yordamida turli kompozitsiyalarni tasvirlash san`ati bo`lib, ko`p hollarda devoriy

bezak sifatida ishlatiladi. Ushbu san`at turi qadim zamonlardan boshlab fransuz, italyan, fors va sharq xalqlari orasida keng tarqalgan bo`lib, har bir davrda o`ziga xos uslub va ma`nolar bilan boyitilgan. Bugunbi kunda esa gobelen san`ati ta`lim jarayonida ham qo`llanilmoqda. Gobelen san`ati orqali o`quvchilar turli ranglarning uyg`unligini, tasviriy ifodaning nafisligini va san`atning nozik shakllarini his qilsak bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov.S.S. Naqqoshlik. Toshkent -2010.
2. Bulatov.S.S. Amaliy bezak san`ati mashg`ulotlari metodikasi. Toshkent 2008
3. Gulyamov.K. Ashyolarga ishlov berish. Toshkent -2004
4. Komoldinov.S.& Sattorov. F Ijodiy asar yaratish bo`yicha metodik tavsiyalar. Scientific-theortical journal of internetional education research 42-46
5. Abdumannopova S. “Art pedagogikada ijodiy muloqat hamda ilg`or metodlar asosida ta`lim samaradorligini oshirish masalalari” 122-127b